

**TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN
BITIRUVCHILARНИ 2024-2025 О'QUV YILIDA BUXORO
MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI BAKALAVRIAT TA'LIM
YO'NALISHLARIGA SUHBAT ASOSIDA O'QISHGA QABUL QILISH
JARAYONIDAGI SAVOLLAR:**

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11-yanvardagi 17 sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mavzularga mos savollar:

a) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi (*tanlanayotgan ta'lism yo'nali shining mohiyati va mazmuni, ushbu ta'lism yo'nali shi bo'yicha kasbiy faoliyat turlari va kasbiy faoliyat obyektlari borasidagi islohotlar to'g'risida bilishi*) (max. 25 ball);

1. Siz tanlagen sohada so'nggi 5 yillikda amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida fikr-mulohaza bildiring. Tanlagen sohangizning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?
2. Tanlangan sohangizdagi an'anaviy va yangi (innovatsion) texnologiyalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Tanlangan soha bitiruvchisi qanday kasb egasi bo'lib yetishadi?
4. Tanlagen sohangizning kasb egalari qaysi oyektlarda faoliyat yuritishlari mumkin?

b) Bakalavriat ta'lism yo'nali shini tanlashda motivatsiya (*soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish*), (*tanlanayotgan ta'lism yo'nali shining jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida ma'lumotga egaligi, shuningdek, aynan mazkur oliy ta'lism muassasasi va ta'lism yo'nali shini tanlashga undagan sabablar*) (max. 25 ball);

1. Tanlagen sohangizning jamiyatda tutgan o'rni haqida nimalarni bilasiz?
2. Sohangizning xalqimiz yashash farovonligini oshirishda qanday ahamiyati bor?
3. Aynan ushbu sohani tanlashingizning eng muhim sabablarini aytib bering.
4. Sohangiz bo'yicha oliy ma'lumot uchun Buxoro muhandislik-texnologiya institutini tanlashingizning boisi nima?

v) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlari (*o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarini hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darjasи, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishslash va ijodkorlik qobiliyatları*), (*O'z fikrini aniq-ravshan, mantiqiy va ijodiy bayon qila olish hamda o'z fikrini asoslay olish qobiliyatı, individual psixologik xususiyatlarning tanlanayotgan ta'lism yo'nali shiga mosligi*) (max. 25 ball);

1. Tanlagen sohangizga oid bitta texnologik jarayonning mexanik xossalari haqida gapirib bering.
2. Kasbiy xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?

3. Tanlagan sohangiz egasining qanday shaxsiy xususiyatlari bo‘lishi lozim, deb o‘ylaysiz?

4. Yo‘nalishingiz bo‘yicha amaliy faoliyatdasiz, jarayonga tegishli muammo chiqib qolsa, qanday yo‘l tutasiz?

g) Tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi (*tanlanayotgan ta’lim yo‘nalishi va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotga egaligi, shuningdek, aynan mazkur oliy ta’lim muassasasi va ta’lim yo‘nalishida oliy ma’lumot olgach uning strategik maqsadlari mavjudligi*) (max. 25 ball).

1. Tanlangan ta’lim yo‘nalishingiz bilan ishlab chiqarish o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

2. Yo‘nalishingizning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati to‘g‘risida gapirib bering.

3. Tanlangan ta’lim yo‘nalishingiz bo‘yicha oliy ma’lumot olgach, qanday faoliyatlarni amalga oshirmoqchisiz?

4. Tanlangan sohangiz bo‘yicha qanday islohotlar qilishni taklif qilgan bo‘lardingiz?

- *Abituriyent bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga kirishda maksimal to‘planishi mumkin bo‘lgan ball 100 ballni tashkil etadi.*

- *Abituriyentlarning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish chegarasi maksimal balning 67 %, ya’ni 67 ball hisoblanadi.*

- *Ishchi guruh tarkibi va kirish sinovlari jadvali institut rektorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.*